



<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i04.103>

TURKIY MEROS VA LINGVOMADANIY TAFOVUTLAR: “DEVONU LUG‘AT-IT TURK” TADQIQI

Parpibayeva Maftuna Zafarjon qizi
Namangan Davlat Universiteti
Mustaqil izlanuvchi doktorant (PhD)
E‘mail: parpibayevamaftunaxon@gmail.com
Tel: +99894 171 70 15

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Devonu lug‘at-it turk” asaridagi lingvomadaniy lakunalar masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda lakuna tushunchasining nazariy asoslari yoritilib, asardagi diniy, tarixiy va madaniy birliklarning semantik xususiyatlari ochib beriladi. Xususan, islomiy tushunchalarga oid birliklarning tarjimada yuzaga keladigan murakkabliklari qiyosiy va lingvomadaniy yondashuv asosida o‘rganiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, lakunalar ko‘p qatlamli mazmunga ega bo‘lib, faqat muayyan madaniy kontekstda to‘liq tushuniladi va tarjimada izohiy hamda kontekstual vositalar orqali berilishi zarur.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyat, lacuna, semantika, tarjima, qiyosiy tahlil, kontekstual tahlil, maqollar, hikmatli so‘zlar, diniy tushunchalar, madaniyatlararo muloqot, leksik birliklar, interpretatsiya

ТЮРКСКОЕ НАСЛЕДИЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ: ИССЛЕДОВАНИЕ «DEVONU LUGAT-IT TURK»

Аннотация: В данной статье анализируется проблема лингвокультурных лакун в “Девану лугат-ит тюрк”. Исследование освещает теоретические основы понятия лакуны и рассматривает семантические особенности религиозных, исторических и культурных единиц, встречающихся в произведении. В частности, проблемы, возникающие при переводе единиц, связанных с исламскими понятиями, изучаются на основе сравнительного и лингвокультурного подходов. Результаты показывают, что лакуны имеют многослойную семантическую структуру, полностью понимаются только в

определённом культурном контексте и требуют объяснительных и контекстуальных методов при переводе.

Ключевые слова: лингвокультура, лакуна, семантика, перевод, сравнительный анализ, контекстуальный анализ, пословицы, мудрые изречения, религиозные понятия, межкультурная коммуникация, лексические единицы, интерпретация

TURKIC HERITAGE AND LINGUOCULTURAL DIFFERENCES: A STUDY OF “DEVONU LUGAT-IT TURK”

Annotation: This article analyzes the problem of linguocultural lacunae in “Devonu lugat-it turk”. The study highlights the theoretical foundations of the lacuna concept and examines the semantic features of religious, historical, and cultural units present in the work. In particular, difficulties arising in the translation of units related to Islamic concepts are investigated using comparative and linguocultural approaches. The findings demonstrate that lacunae possess a multilayered semantic structure, are fully comprehensible only within a specific cultural context, and require explanatory and contextual strategies in translation.

Keywords: linguoculture, lacuna, semantics, translation, comparative analysis, contextual analysis, proverbs, wise sayings, religious concepts, intercultural communication, lexical units, interpretation

Kirish

Jahon adabiyoti xazinasida shunday yirik va betakror asarlar mavjudki, ularning lisoniy va badiiy qimmatini vaqt va makon chegaralaridan mustaqildir. Bunday asarlar kitobxon uchun shunchaki estetik zavq manbai bo‘lib qolmay, balki chuqur intellektual tahlil va semantik interpretatsiya obyektini sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi matn zamiridagi konseptual ma’nomlarni tushunish maqsadida unga doimiy murojaat qiladi va har safar yangi lingvistik va madaniy qatlamlarni kashf etadi. Shu bilan birga, matnni o‘rganishdan ko‘zlangan asosiy maqsad moddiy manfaatdorlik emas, balki asarning ma’naviy-falsafiy mohiyatini anglash va intellektual ehtiyojni qondirishdir. Matn tarjimasi jarayonida kitobxon yordamchi manbalarga tayanadi, qiyosiy izlanishlar olib boradi va asar tili orqali muayyan xalqning madaniy-ma’rifiy sarchashmalaridan bahramand bo‘ladi. “Mana shunday milliy va lisoniy xazinaga boy; ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik jihatidan satrlari bir-biriga uyg‘unlashgan, ko‘plab millat va elatlar kechmishi, madaniy hayoti, geografik o‘rni va davlat boshqaruvini batafsil tasvirlagan, qadimgi turkiy tilda asarlarning eng buyugi hisoblangan asar bu – “Devonu lug‘at-it turk” me’moriy yodgorligidir”. [1; 60]

Adabiyotlar tahlili

“Devonu lug‘at-it turk”ning o‘zbek tilidagi nashrini asliyat bilan qiyosiy tahlil qilib, tabdil etgan ilk tilshunos olim S. Mutallibov hisoblanadi. Keyinchalik A. Rustamov, H. Boltaboyev, B. Isabekov va Q. Sodiqovlar ushbu tarjimani asliyat bilan muqoyasa qilib, tushib qolgan jumla va parchalarni aniqlab, muhim tuzatishlar kiritganlar.

Asarning lingvistik jihatlarini H. Dadaboyev, Z. Boynazarov, U. Tursunov, Iqbol Mirzo, Z. Habibullina, B. Abdushukurovlar tomonidan fonetik, leksik va semantik yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Leksikografiya sohasida Ibragimov va M. Asomiddinov, dissertatsiyalar orqali esa N. Usmonova, M. Abdiyev, I. Qo‘chqortoyev, S. Normamatovlar hissa qo‘shgan. Shuningdek, E. Umarov bilan birga H. Dadaboyev maqolalari ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Devonning dialektologik xususiyatlari M. Imomnazarov, Sh. Rahmatullayev, F. Abdullayev, S. Ashurboyev, A. Ishayevlar tomonidan chuqur tahlil qilinib, undagi ko‘plab sheva va lahjalarning o‘ziga xos jihatlarini ochib berilgan. Adabiy jihatdan esa H. Berdiyev, D. Rajabov, I. Stebleva, A. Hayitmetovlar devonning badiiy qiymatini yuksak baholaganlar.

Shuningdek, S. Axalli, A. Barovkova, V. Uygurovich, S. Rustamova, G. Rozikovalar dissertatsiyalarida asarning lisoniy jihatlarini o‘rganganlar. B. Parpibayev esa devondagi maqol va hikmatli so‘zlarning o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi tarjimalarini struktur-semantik hamda lingvomadaniy jihatdan tizimli ravishda ilk bor qiyosiy tahlil qilgani bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda Devonu lug‘at-it turk tarkibidagi lingvomadaniy lakunalarni aniqlash va tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo‘llaniladi.

Birinchidan, qiyosiy-tahliliy metod asosida asardagi birliklar zamonaviy o‘zbek hamda ingliz tillaridagi muqobillari bilan solishtiriladi. Bu orqali tarjimada yuzaga keladigan semantik yo‘qotishlar va madaniy tafovutlar aniqlanadi. Ikkinchidan, lingvomadaniy tahlil metodi yordamida lakuna hodisalari milliy-madaniy kontekstda o‘rganiladi. Har bir birlikning etnografik, tarixiy va mental asoslari izohlanadi. Uchinchidan, kontekstual-semantik tahlil qo‘llanib, lakunalarning matn ichidagi funksiyasi, ma‘no ko‘chishlari va stilistik xususiyatlari ochib beriladi. To‘rtinchidan, struktur-semantik metod orqali maqol va hikmatli so‘zlar tarkibidagi lakunalar shakl va mazmun birligi asosida tizimlashtiriladi.

Tahlillar va natijalar

“Devonu lug‘at-it turk” asaridagi bu kabi islomiy aqidalar (boshqa qadimgi dinlar ham) mujassamlashgan lakunalar ko‘p topiladi, chunki Devondagi maqol va hikmatli so‘zlarasosan Islom dini ta‘siri ostida bitilgan bo‘lib, undagi hikmatli so‘zlar va maqollar hadis ma‘nolarini o‘zida jamlaydi. Hattoki asar muqaddimasiniung an‘anaviy islomiy usul bilan “Allohgga hamd va Payg‘ambarimizga (s.a.v.) salovotlar” bilan boshlanishi ham ayni fikrimizni isbotlaydi. Bu haqda Devonni ingliz tiliga tarjima qilgan buyuk turkolog tarjimon R.Dankoff “Koshg‘ariy

uchun turk tili va madaniyati Islom dinining bir bo‘lagi edi. U o‘z asarida turk xalqlarini Islom bayroqdori sifatida ta’riflaydi va buni diniy, tarixiy va filologik asoslar bilan quvvatlaydi” deya qayd etadi.

Asarda quyidagi o‘rinlarda Islom diniga oid lingvomadaniy lakunalar uchraydi:

Buni ulug‘ payg‘ambar alayhissalom martabasidagi hoshimiylar sulolasidan, abbosiylar avlodidan bo‘lmish sayyidimiz va ulug‘imiz Abul Qosim Abdulloh bin Muhammadadil Muqtado biamrillahga armug‘on qildim... . Odam o‘g‘illari uning mo‘l karami bilan yulduzlar singari yuksak martabaga erishsinlar [2; 15].

Avvalo, *sayyid* so‘ziga diqqatimizni qarataylik. Ushbu so‘z o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida ko‘p holatlarda keltirilmagan, chunki sayyid so‘zi ko‘proq tarixiy-diniy, shajaraviy tushuncha bo‘lgani uchun umumiste‘moldagi so‘zlar qatoriga kirmasligi mumkin. Sayyid so‘zi arabcha “janob”, “Rabbiy”, “ustoz” ma’nolarini anglatib, Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning nabiralari Hasan ibn Ali va Husayn ibn Ali orqali nasl-nasabidan chiqqan kishilarning familiyasidir. [4] Ilk Islom davrida as-Sayyid unvoni Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar qabilasi bo‘lmish banu Hoshimning barcha a’zolariga nisbatan qo‘llangan. Ammo keyinchalik bu unvon Hasaniy va Husaniy avlodlariga, birinchi navbatda Fotimiy xalifalariga xos bo‘lgan. [7] Hozirda esa ushbu unvon Islom olamida hurmatga sazovor, yuksak ma’naviy va diniy martabaga ega bo‘lgan nasliy unvon hisoblanadi. Koshg‘ariy bu so‘zni Al-Muqtadoga nisbatan qo‘llashi orqali turkey qudrat va islomiy ma’naviyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni namoyom etadi. Xalifani “sayyidimiz” deb atash bilan u turkey xalqlarning Islom xalifaligiga bo‘lgan sadoqatini tasdiqlaydi va o‘z ona tilini mana shunday yuksak maqom darajasiga, ya’ni islomiy qadriyatlar qatoriga ko‘tarishni maqsad qiladi. Aynan shu jihat *sayyid* so‘zining lingvomadaniy lacuna sifatida baholanishiga asos bo‘ladi, chunki mazkur birlik oddiy nom yoki unvon bo‘lib qolmay, o‘zida nasab, diniy maqom, tarixiy xorita va ijtimoiy hurmat kabi bir necha qatlamli madaniy mazmunni mujassamlashtiradi. Bu mazmun esa faqat islomiy va turkey lingvomadaniy ,uhitda to‘liq anglashiladi, boshqa til va madaniyatlarda esa mazkur tushuncha izoh talab qiluvchi, ichki madaniy tajribaga tayanmagan birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Tilshunos Antipov ham bu kabi holatlar haqida quyidagicha fikr yuritadi: “Begona madaniyat (yot madaniyatga mansub matn) bilan muloqotga kirishar ekan, restsipient uni o‘zining mahalliy madaniyati prizmasi orqali qabul qiladi va aynan shu holat notanish madaniyatga xos bo‘lgan o‘ziga xos hodisalarni tushunishda to‘siqlarga duch keladi”. [5; 84] Tilshunos olim Popper ushbu to‘siqni g‘ayritabiiy usulda tushuntiradi: “...biz hammamiz o‘ziga xos intellectual qamoqxonada yashaymiz, uning devorlari esa bizning tilimizning turkumiy qoidalaridan qurilgan. Bu juda g‘alati qamoqxona bo‘lib, biz o‘zimizni qamoqda ekanligimizni his qilmaymiz. Biz buni faqatgina madaniyatlar to‘qnashgandaniga fahmlaymiz [6; 34] deya sodda va lo‘nda tilda izohlaydi olim. Haqiqatan

ham, inson o‘z ona tili va madaniyati doirasida shakllangan “intellectual qamoqxona” devorlarini faqat o‘zga madaniyat vakili bilan muloqotga kirishgandagina, ya’ni o‘z tilining chegarasini his qilgandagina anglaydi. Lakunalar esa aynan ana shu “qamoqxona devorlari” – bir tilning imkoniyati tugab, boshqa bir madaniyatning o‘ziga xosligi boshlanadigan nuqtalardir.

Xulosa

Devonu lug‘at-it turkdagi lingvomadaniy lakunalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, asar nafaqat lingvistik manba, balki chuqur madaniy-semantik qatlamlarni o‘zida mujassam etgan noyob yodgorlikdir. Lakunalar, xususan diniy va tarixiy tushunchalar (masalan, “sayyid”), til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini namoyon etib, ularning boshqa tillarga tarjimasida muqobil birliklarning yetishmasligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bunday birliklar ko‘p qatlamli semantik tuzilishga ega bo‘lib, ular faqat muayyan lingvomadaniy muhitda to‘liq anglashiladi. Tarjima jarayonida esa ular izoh, tavsif yoki kontekstual kengaytirish orqali berilishi zarurligi aniqlanadi.

Umuman olganda, lingvomadaniy lakunalar tilning chegaralarini, madaniyatlararo tafovutlarni hamda interpretatsiya jarayonidagi murakkabliklarni yoritib, qadimgi turkiy merosni chuqurroq anglash va uni boshqa tillarda adekvat ifodalash muammolarini ilmiy asosda ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Parpibayev.B.R. Qadimgi turkiy folklor va ularning tarjimalaridagi o‘ziga xos xususiyatlar (“Devonu lug‘at-it turk” asaridagi maqol va hikmatli so‘zlar misolida): f.f.f.d., (PhD) diss. – Namangan, 2024. – B. 60.

2. Кошғарий, Маҳмуд. Девону-луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. Нашрга тайёрл. Ҳ. Болтабоев, Б. Исабеков. – Тошкент, Mumtoz so‘z, – 2016.

3. К.Содиқов. Маҳмуд Кошғарий. Девону-луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони) – Тошкент-2017, Г.Гулом – 489 б.

4. Parwej, Mohammad Khalid. [365 days with Sahabah](#). Goodword Books, 2015. Qaraldi: 2017-yil 4-iyul.

5. Антипов Г.А., Донских О.А., Марковина И.Ю., Сорокин Ю.А. Текст как явление культуры. – М.: Наука, 1989. – 84 с

6. Popper, K. R. (1994). The Myth of the Framework: In Defence of Science and Rationality. Routledge. – P. 33-34.